

UDK 34 4414

**KORRUPSIYASIZ JAMIYAT DEMOKRATIK DAVLAT POYDEVORI**

*Zaripova Hajibibi Aminboy qizi*

*Yurispurudensiya (qishloq xo'jaligi huquqi) yo'nalishi 1-kurs talabasi  
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti 230101,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri  
E-mail: ftga\_info@edu.uz, (90) 078-26-97*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korrupsiyaning mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'siri, demokratik davlat yaratish yo'lida korrupsiyasiz jamiyat qurish mezonlari muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** Korrupsiya, huquq, demokratiya, jamiyat, metod, qonun.

**CORRUPTION-FREE SOCIETY IS THE FOUNDATION OF A  
DEMOCRATIC STATE**

*Zaripova Hajibibi Aminboy kizi*

*1st year student of jurisprudence (agricultural law).*

*Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies 230101, Nukus,  
Republic of Karakalpakstan  
E-mail: ftga\_info@edu.uz, (90) 078-26-97*

**Abstract.** This article discusses the negative impact of corruption on the development of the country, the criteria for building a society without corruption in the way of creating a democratic state.

**Key words:** Corruption, law, democracy, society, method, law.

**БЕЗКОРУПЦИОННОЕ ОБЩЕСТВО – ОСНОВА ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО  
ГОСУДАРСТВА**

*Зарипова Хаджибиби Аминбой кизи*

*Студентка 1 курса юридического факультета (сельскохозяйственное право).  
Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий 230101, г.  
Нукус, Республика Каракалпакстан  
E-mail: ftga\_info@edu.uz, (90) 078-26-97*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается негативное влияние коррупции на развитие страны, критерии построения общества без коррупции на пути создания демократического государства.

**Ключевые слова:** Коррупция, право, демократия, общество, метод, закон.

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ijtimoiy adolatni idrok etishning xalqimiz mentalitetiga xos muhim jihatini o'ta ziyraklik bilan ta'kidlab o'tganidek, biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettirishimiz lozim. Zero, ijtimoiy adolat demokratiyaning asosi bo'lib, xalqimiz demokratiya, deganda, avvalo, ijtimoiy adolatni idrok etadi. Chunki aynan ijtimoiy adolat va demokratiyaning o'zaro uyg'unligi asosidagi barqaror taraqqiyot orqali strategik maqsadlarimizga erishish uchun zaminyaratadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev o'z chiqishlarida o'tkazilayotgan islohotlar ayrim hollarda aholining muayyan qatlamlariga yetib bormayotganligini keskin tanqid qilib. "Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir", deb bejiz qayd etmadi. Qonun ustuvorligiga nisbatan ham shuni aytish mumkin. Ijtimoiy adolat jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qadriyat sifatida siyosiy mazmun kasb etadi. Hozirda ko'plab davlatlarda terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, shu jumladan, korrupsiya avj olayotgani dunyo jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Korrupsiya fuqarolar, ayniqsa, yosh avlodda ijtimoiy adolatga, haqiqatga, davlat organlari va mansabdor shaxslarga bo'lgan ishonchni susaytirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan o'sib kelayotgan yosh avlodni, ayniqsa, yoshlarga korrupsiyaning nechog'li xavfli illat ekani haqida doimiy o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlarida, maktab, litsey, kollej, oliy ta'lim muassasalarda dars soatlarini ko'paytirib, targ'ibot ishlarini olib borishimiz zarur. Negaki, bugungi kun tarbiyalanayotgan farzandlarimiz, bitiruvchisi, talabalar ertangi mutaxassis, jamiyat va davlat boshqaruvining ishtirokchisidir.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Mamlakatimizda adolatli jamiyat barpo etildi. Bu jarayonda xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi lozimligini barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib yetishmoqda.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarga nazar tashlasak, huquqiy demokratik davlat va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodi asosidagi fuqarolik jamiyatini barpo etish oson kechmayotganligi kuzatilmoqda shohid bo'lamiz. Huquqiy demokratiyaga asoslangan, korrupsiyasizadolatli jamiyatni qurish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Ijtimoiy adolat esa jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarini qamrab olib, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishning muhim omilidir. Bunda odamlar o'zlarini faqat o'z mahallasi, qishlog'i yoki yurtinigina vakili, deb emas, balki ochiq fuqarolik jamiyatining a'zosi sifatida his etishi talab etiladi. Demak, ijtimoiy adolatsizlik ko'rinishlarini bartaraf etish masalasi davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining baravar mas'ulligi va hamkorligini talab etadi. Jamiyatimizdagi

korrupsiyaning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri mahalliychilik hisoblanadi. Mahalliychilik–aslida jamiyatda urug'-aymoqchilik asosi bildiradi. U jamiyat hayotining ko'pgina sohasini o'rgimchak uyasiday qamrab olish xavfi tufayli o'ta zararlidir. Fikrimizcha, bu illatga qarshi maxsus yuridik qoidalarva ko'rsatmalar ishlab chiqish ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish sohasidagi muhim qadam bo'lgan bo'lar edi. Tor doira vakillaridan iborat poraxo'rliigi, ta'magirliigi va moddiy qadriyatlarni taqsimlash sohasidagi ko'zbo'yamachiliklar ham jamiyat uchun real xavfdir. Albatta, bozor munosabatlari shakllanishi, xususiy mulk rivoji, sog'lom raqobat, o'zaro musobaqaning takomillashuvi bunday salbiy ko'rinishlarning ildiziga bolta uradi. Shu bois huquqni muhofaza qiluvchi organlar vajamoatchilik tomonidan zarur tadbirlarni amalga oshiribkelmoqda. Bu kabi illatlarga qarshi faqat hayotiy qonun kuchi va butun jamoatchilik yordami bilan qarshi kurashish, ularnioshkoralik va qonunchilik yordamida bartaraf etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Korrupsiyaning adolatga zidligi shunda namoyon bo'ladiki, u hal etilmagan ijtimoiy muammolarning murakkablashuviga, keskinlashuviga olib keladi [3]. Zero u ayrim imtiyozlarni o'ziga nisbatan noqonuniy da'vo qiladi. Natijada zo'ravonlik, ish sohasini yaxshi bilmaslik, mansabdorlarga ko'r-ko'rona itoat etish, rasmiyatchilik, sansalorlik, buyruqbozlik, ko'zbo'yamachilik kabi ish jarayonidagi illatlar soxta obro'ga intilish, fisqu fasod, takabburlik, qat'iyatsizlik, soxta dadillik, odamlarga bepisandlik, yolg'on ishlatish, sharoitga moslashish, ma'muriy buyruqbozlik kabi salbiy holatlarga olib keladi. S.Buryanovning fikricha, soha mutaxassislari davlat boshqaruv organlarining "majburlov" huquqlarini amalga oshirish jarayonida, jumladan, quyidagi omillar ham korrupsiyaga sabab bo'lishi mumkin deb hisoblanadi [1]: mansabdor shaxslar tomonidan majburiy to'lovlarni undirishni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratining yo'qligi, jamiyatda "yashirin iqtisod" va "uyushgan jinoyatchilik" kabi salbiy illatlar mavjudligi. Ushbu salbiy holatlarni oldini olib, O'zbekiston Respublikamizda korrupsiyaga qarshi keskin kurasholib borilmoqda. Endi ta'lim soxasiga to'xtalib o'tsak, halqarotajribadan ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarning qonunlarida davlat xizmatchilari uchun standart taqiq va cheklovlar mavjud.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Huquqiy ongning shakllanishi huquqiy ta'lim va savodxonlik, huquqiy bilim, ko'nikma va malakaning darajasi bilan belgilanadi. Shaxs huquqiy ta'lim orqali huquq asoslarini, uning asosiy normalarini bilib oladi. Shundagina o'zining harakatlarini baholash, birovlarning huquqqa munosabati haqida fikr bildirish, huquqiy bilimlarni hayotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish, qonunga rioya etish va huquqbuzarlikka nisbatan murosasizlikni tarbiyalashga erishiladi. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda huquqiy demokratiyaga asoslangan korrupsiyasiz adolatli jamiyatni qurish huquqiy ong darajasi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Buryanov S. Davlat munosabatlari sohasidagi tizimli korrupsiya “Huquq va hayot”, 57-son, 2013 yil iyun,
2. Bocharnikova L.N., Didenko K.V., Mixaylova I.A. 2012. Korrupsiya jinoyatlarini sodir etgan ichki ishlar organi xodimining shaxsiy xususiyatlari. - Rossiya Ichki ishlar vazirligining Belgorod yuridik instituti byulleteni. № 2(20). 52-56-betlar.
3. Gorobova V.V. 2015. Shaxsning korrupsiyasi va axloqiy illatlari. – nomidagi TDPU gumanitar byulletenlari. L.N. Tolstoy. № 2(14). 41-45-betlar.
4. Popov E.A. 2012. Korrupsiya va insoniyat madaniyati. - Evrosiyo yuridik jurnali. № 3(46). 63-66-betlar. Rassadovskaya A.V. 2018. Ijtimoiy kapitalning guruh korrupsiyasi haqidagi tasavvurlarga ta'siri. – nomidagi Nijniy Novgorod universiteti axborotnomasi. N.I. Lobachevskiy. Ser. Ijtimoiy fanlar. № 2(50). 16-24-betlar.
5. Ruxieva.X.A. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va suitsidal holatlar psixoprofilaktikasi. 2021.-360 b. “Toshkent” “TAFAKKUR TOMCHILARI”